# QASIDA: OTA-ONA HAM INSON

**Iqtisodiyot va Pedagogika**
**Universiteti Samarqand**
**kampusi, boshlanğich ta'lim yönalishi 131-guruh talabasi**
**Murodova Vaziraoy Shovqiddin qizi**

**Annotatsiya**

Ushbu qasidani yozishdan maqsadim faqat farzandlar haqida emas, balki ota-onalar haqida ham fikr bildirishdir. Chunki bu hayotda hamma narsa bo‘ladi. Ota-onalar ham xato qiladi, axir hech kim mukammal emas.Men bu qasida orqali bir narsani aytmoqchiman: men o‘z maqsadimga erishdim, o‘qishga kirdim. Ota-onam ham oxir-oqibat meni tushundi. Ammo men erishgan marraga boshqalar ham erisha olmasligi mumkin. Shuning uchun ularga aytmoqchi bo‘lgan gapim bor:Orzu qildingizmi, demak, harakat qiling! Tushkunlikka tushib, orzularingizdan voz kechmang. Balki ota-onangiz ham bir kun kelib sizni tushunar.Men bu so‘zlarni faqat «o‘qinglar» deyish uchun yozmayapman. Hayotda o‘z o‘rningiz, o‘z kasbingiz va o‘z qadringiz bo‘lishi uchun harakat qiling. Hech bo‘lmasa, bitta hunar egasi bo‘ling, biror kasbni egallang.Hatto erta turmushga chiqib ketsangiz ham, o‘z orzularingizdan voz kechmang. Ertaga kimningdir o‘g‘li sizga qarab: «Sen men uchun hech kimsan», deb aytmasligi uchun bugundan o‘z ustingizda ishlang. O‘z qadringizni biling, mustaqil bo‘lishga intiling.Aziz qizlar, orzu qilishdan qo‘rqmang! O‘z orzularingiz sari dadil qadam tashlang. Chunki bu hayot har birimizga bir marta beriladi. Uni faqat boshqalarning istaklari bilan emas, o‘z orzularingiz bilan ham yashang!

OTA-ONA HAM INSON

Bu kitob faqat farzand haqida emas.
Chunki ota-ona ham inson.
Ular ham xato qiladi.
Ular ham charchaydi.

Ular ham qo‘rqadi.

Ular ham ba’zan nima qilishni bilmay qoladi.

Hech kim ota-ona bo‘lishni mukammal bilib tug‘ilmaydi.

Ular ham hayotni o‘rganib boradi.

Ba’zi ota-onalar o‘zlari bolaligida ololmagan mehrni farzandiga berishga harakat qiladi.

Ba’zilari esa o‘zlari ko‘rgan tarbiyani bilmagan holda takrorlaydi.

Shuning uchun farzandning vazifasi ham ota-onasini faqat ayblash emas.

Ba’zan ularning ortidagi charchoqni ham ko‘rishga harakat qilish kerak.

Ammo tushunish — og‘riqni inkor qilish degani emas.

Kechirish — boshdan kechirilgan narsani “hech narsa bo‘lmagan” deb hisoblash degani emas.

Eng muhimi, ikki tomon ham bir-birini tushunishga harakat qilishi.

Balki ota-ona:

“Men seni tushunmayapman, lekin tushunishga harakat qilaman.”

desa, ko‘p narsalar o‘zgarar.

Balki farzand ham:

“Men sizdan xafa bo‘lsam ham, sizni yomon ko‘rmayman.”

deyishni o‘rganar.

Chunki ba’zan mehr yo‘qolmaydi.

Faqat uning ustini ranjishlar bosib qoladi.

---

MENI TARBIYALASHDAN OLDIN, MENI TUSHUNING

Farzandni tarbiyalash kerak.

Ammo tarbiyadan oldin tushunish kerak.

Chunki biz tushunmagan odamimizni to‘g‘rilashga urinaveramiz.

Uning xatti-harakatini ko‘ramiz, lekin sababini so‘ramaymiz.

Uning sukutini ko‘ramiz, lekin ichidagi og‘riqni bilishga harakat qilmaymiz.

Uning xatosini ko‘ramiz, lekin unga nima sabab bo‘lganini so‘ramaymiz.

Balki farzandning darslari yomonlashgani dangasalikdan emasdir.

Balki uning ko‘ngli sinib qolgandir.

Balki do‘stlari bilan muammosi bordir.

Balki o‘ziga ishonchi yo‘qolgandir.

Balki u shunchaki charchagandir.

Shuning uchun farzand xato qilganida darhol:

“Nega bunday qilding?”

deb hukm chiqarishdan oldin:

“Nima bo‘ldi?”

deb so‘rab ko‘ring.

Maslahat berishdan oldin tinglang.

Tanbeh berishdan oldin tushunishga harakat qiling.

Boshqalarga o‘xshatishdan oldin uning kimligini bilishga harakat qiling.

Chunki farzandga ba’zan tarbiya emas, avval tushunilish kerak bo‘ladi.

---

MENI BIR BOR TINGLA

Balki farzandingiz sizga aytmagan gaplari bilan ulg‘ayayotgandir.

Balki u sizni xafa qilishdan qo‘rqayotgandir.

Balki:

“Men bu kasbni xohlamayman.”

“Men bundan qo‘rqaman.”

“Men charchadim.”

“Men o‘zimni boshqalardan kam his qilyapman.”

“Men sizning mendan kutganlaringizni bajara olmayapman.”

“Men sizni xafa qilishdan qo‘rqaman.”

degan gaplarni ichida olib yuribdi.

Balki u sizga qarab:

“Meni ham bir bor tinglang.”

demoqchidir.

Shuning uchun ba’zan telefonni chetga qo‘ying.

Ishlaringizni bir chetga suring.

Farzandingizning yoniga o‘tiring.

Unga qarang.

Va shunchaki so‘rang:

“Bolam, sen yaxshimisan?”

Agar u:

“Ha”, — desa ham, darhol ketmang.

“Rostdanmi?” deb muloyimlik bilan yana bir bor so‘rang.

Chunki ba’zan “ha” so‘zining ortida butun bir dard yashiringan bo‘ladi.

---

YAKUN

FARZANDNING O‘Z YO‘LI BOR

Agar bir kuni farzandingiz yoningizga kelib:

“Men siz xohlagan inson bo‘la olmadim.”

desa, undan:

“Unda sen qanday inson bo‘lishni xohlaysan?”

deb so‘rang.

Agar u:

“Men sizning orzularingizni amalga oshira olmadim.”

desa, unga:

“Sen mening orzularimni emas, o‘z hayotingni yashashing kerak.”

deya oling.

Chunki farzand — ota-onaning davomchisi.

Ammo u ota-onasining nusxasi emas.

Uning o‘z qalbi bor.

O‘z orzusi bor.

O‘z qiziqishi bor.

O‘z qo‘rquvlari bor.

O‘z yo‘li bor.

Ota-onaning vazifasi farzandining butun yo‘lini belgilab berish emas.

Ba’zan eng katta mehr —

uning yo‘lini tanlab berish emas, o‘z yo‘lini topishida yonida turishdir.

Bir kun kelib farzand ulg‘ayadi.

Uyidan chiqib ketadi.

O‘z oilasini quradi.

O‘z hayotini boshlaydi.

Ammo bolaligida eshitgan gaplari uning qalbida uzoq qoladi.

Shuning uchun farzandingizga faqat:

“Yaxshi inson bo‘l.”

demang.

Ba’zan uning yoniga o‘tirib:

“Bolam, sen yaxshimisan?”

deb so‘rang.

Balki u butun bolaligi davomida aynan shu savolni kutgandir.

Balki uning sizdan kutgani mukammal ota-ona emasdir.

Balki unga shunchaki eshitadigan, tushunishga harakat qiladigan va xato qilganida ham yonida qoladigan ota-ona kerakdir.

Shuni unutmang:

Farzand — mukammal bo‘lishi kerak bo‘lgan loyiha emas.

U — qalbi bor inson.

Uni faqat tarbiyalash emas, tushunish kerak.

Uni faqat boshqarish emas, tinglash kerak.

Uni faqat kelajakka tayyorlash emas, bugungi kunida ham baxtli yashashiga imkon berish kerak.

Va ehtimol, farzandga beriladigan eng katta sovg‘alardan biri — unga:

“Men seni eshitaman.”

degan tuyg‘uni berishdir.

---

FARZANDNING AYTOLOLMAGAN SO‘NGGI GAPI

Meni tarbiyalashdan oldin — meni tushuning.

Menga maslahat berishdan oldin — meni tinglang.

Meni boshqalarga o‘xshatishdan oldin — men kim ekanimni bilishga harakat qiling.

Mendan mukammallik kutishdan oldin — xato qilishimga ham haqqim borligini unutmang.

Mening o‘rnimga hayot tanlashdan oldin — qalbim nimani xohlashini so‘rang.

Men sizning farzandingizman.

Sizni hurmat qilaman.

Sizni yaxshi ko‘raman.

Lekin men ham alohida bir insonman.

Mening ham orzularim bor.

Mening ham qo‘rquvlarim bor. Mening ham aytilmagan gaplarim bor.

Shuning uchun…

Meni faqat ko‘rmang.

Meni tinglang.

Meni faqat tarbiyalamang.

Meni tushuning.

Meni faqat kelajagim uchun sevmang.

Bugun qanday bo‘lsam, shundayligimcha ham seving.

Chunki men sizning orzuingiz bo‘lib dunyoga kelgan bo‘lishim mumkin.

Ammo men o‘z hayotimni yashash uchun tug‘ilganman.

Meni ham bir bor tinglang…

Qalbim she’ri

Dadajon, shafqatsiz hayot jonga tegdi,

Qora kunlar yuragimni ezib ketdi.

Odamlarning gap-so‘zlari tinmaydi hech,
Dardim ichda, ko‘zlarimdan yoshlar oqdi.

“Chida”, deydi hamma, ammo kim biladi,
Bu yurakda qancha armonlar qoladi.
Har kun o‘tar, go‘yo ming yil bo‘lganday,
Ba’zan inson o‘z dardiga qul bo‘ladi.

Allohimga ishonaman, umidim Sendan,
Rahmatingni ayirma hech bu bandangdan.
Dadajon, duongiz menga kuch bo‘ladi,
Yorug‘ kunlar kelar hali ortimizdan.